

## INTELLEKTUAL MULK BILAN BOG'LIQ NIZOLARNI HAL QILISH UCHUN MEDIATSIYADAN FOYDALANISH

Rasulov Sherbek G'ayrat o'g'li

Toshkent shahar Bektemir tuman yuridik xizmat

ko'rsatish markazi Bosh yuriskonsulti

@mail: [rasulov.sherbek@mail.ru](mailto:rasulov.sherbek@mail.ru)

[Tel:+998993543314](tel:+998993543314)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7321985>

**Annotatsiya.** Intellektual mulkda nizolarini sudda ko'rib chiqishdan ko'ra sudgacha bo'lgan muqobil usullar qo'llanilishi zamonaviy huquq tizimlarida juda kerak. O'zbekiston huquqiy tizimida intellektual mulkka oid nizolarni hal qilishda mavjud bo'lgan muammolar va nizolarni muqobil usulda hal etishni joriy etish uchun qanday qadamlar kerakligiga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot ishining xulosasiga ko'ra, nizolarni muqobil hal etish mexanizmlari intellektual mulk uchun juda mos keladi va O'zbekiston bunday tizimni amalga oshirish uchun katta qadamlar qo'yishi kerak.

**Kalit so'zlar.** sud, mediatsiya, mediativ kelishuv, arbitraj kelishuvi, ADR, Med-Arb

Intellektual mulk huquqida nizolarini muqobil ravishda hal qilish usullari turli xildir. Ular rivojlanmoqda, shu jumladan vositalar toifasidagi tobora ko'proq yangi mexanizmlar, bu orqali majburiyatlarini bajarmaslik yoki adolatsiz bajarish bilan bog'liq har qanday nizoni sudga murojaat qilmasdan hal qilish mumkin. Xorijiy davlatlarda bu borada o'ttizdan ortiq usuldan foydalaniladi. Asosiy muqobil usullar sifatida **mediatsiya, arbitraj va muzokaralarni** keltirib o'tishimiz mumkin. Shulardan biri bo'lgan mediatsiyaning paydo bo'lishi holatlari birinchidan, davlat sudlarining haddan tashqari ish yukining ko'pligi, ikkinchidan, maxfiylikni saqlagan holda, nizoni vositachi yordamida tezda hal qilish imkoniyatini ta'kidlash mumkin.

Mediatsiya tushunchasiga alohida to'xtaladigan bo'lsak, ko'pchilikka notanish bo'lgan bu so'z lotin tilidagi "mediare" so'zidan olingan bo'lib, "vositachilik qilish, kelishtirish maqsadida aralashish" degan ma'nolarni bildiradi.<sup>1</sup> Mediatsiya — bu bir-birini tushunish va nizoli holatni bartaraf etuvchi bitim tuzishga erishish maqsadida xolis shaxs — mediator (vositachi) ishtirokida taraflarning erkin muzokaraga kirish yo'li bilan nizoni muqobil hal qilish usulidir.

Nizoni sud orqali hal qilishdan farqli o'laroq, mediatsiyaning afzalliklari quyidagilardan iborat:

<sup>1</sup> <https://m-eng.ru/uz/kanalizacionnye-truby/mediaciya-kak-sposob-uregulirovaniya-konfliktov-yuristom-posrednikom-mediaciya.html>

- Arbitraj va sud jarayonining narxi, qoida tariqasida, vositachilik protsedurasining narxidan sezilarli darajada farq qiladi. Bundan tashqari, mediatsiya bepul amalga oshirilishi mumkin;
- Mediatsiya tartibi nizo taraflarining kelishuvi bilan belgilanadi va qonun yoki tegishli sud qarori bilan tartibga solinadigan sud va hakamlik muhokamasidan farqli o'laroq, u kamroq vaqt talab etadi va tezroq amalga oshiriladi. Taraflar qat'iy protsessual talablarga rioya qilishdan ozod;
- Mediatsiya tartibi qonun bilan maxfiy hisoblanadi. Fuqarolik va hakamlik muhokamasida oshkoralik prinsipiga ko'ra, sudning har qanday qarori ommaviy axborot vositalarida muhokama qilinadigan mavzuga aylanishi mumkin. Nizoning paydo bo'lishi jamoat maydoniga tarqalishi mumkin, bu noto'g'ri axborot fonini yaratilishi, maxfiy tijorat ma'lumotlarining oshkor etilishiga olib kelishi mumkin;
- Jahon amaliyotida mediatsiyadan foydalanish ijobiy natijalar beradi: Jumladan mediatorlar ishtirokida hal qilingan nizolarning 70-80% gachasi kelishuv bilan tugaydi.

Mediatsiya ixtiyoriylik, maxfiylik, o'zaro hurmat, tomonlarning teng huquqliligi, mediatorning betarafligi va xolisligi, jarayonning shaffofligi, hamkorlik, mas'uliyat kabi fundamental tamoyillarga asoslanadi. Ushbu tamoyillarning aksariyati nizolarni sud orqali hal qilishning asosini tashkil qiladi, ammo sud tizimlaridan farqli o'laroq, mediatsiya jarayonning demokratikligini va tomonlarning qaror qabul qilishda ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu vositachilik va nizolarni hal qilishning boshqa tizimlari o'rtasidagi asosiy farq bo'lib, qaror qabul qilish jarayonida ikkala tomonning ishtiroki hisoblanadi.

Hozirgi kunda rivojlangan xorijiy davlatlar huquqiy tizimida nizoni sudgacha olib bormasdan, muqobil yo'l bilan hal qilishga qaratilgan mediatsiya – yarashtiruv protsedurasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Yaponiya, Xitoy, Gonkong, Koreya Respublikasi, Hindistonda tashkil etilgan va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda.

AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliyada mediatsiya qonuniy ravishda tasdiqlangan va yarim asrdan ko'proq vaqt davomida muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Keyinchalik esa Germaniya, Fransiya, Belgiya va boshqa mamlakatlarda keng tarqaldi. Germaniyada mediatsiya adliya tizimiga uyg'un tarzda kiritilgan. Masalan, mediatorlar to'g'ridan-to'g'ri sudlar bilan ish olib boradi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sud jarayonlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Ko'pgina nemis huquqshunoslik maktablarida mediatsiya bo'yicha

doimiy kurs joriy qilingan. Ushbu davlatlarning qonunchiligi vositachilikni rag'batlantiradi va bir qator mamlakatlarda mediatsiya sudgacha majburiy protsedura hisoblanadi. Quyida biz nizolarni muqobil hal etish usullarini xorij tajribasida ko'rib chiqamiz.

**Rossiya Federatsiyasi:** Mediatsiya instituti Rossiyada 10 yildan ortiq vaqt davomida mavjud bo'lib, 2010-yil 27-iyulda "Mediator ishtirokida nizolarni hal qilishning muqobil tartibi to'g'risida (mediatsiya protsedurasi)" qonun qabul qilingan va 2011-yil 1-yanvardan boshlab maxsus qonun kuchga kirgandan so'ng u yangi bosqichga ko'tarildi. 2019-yil mediatsiya to'g'risidagi qoidalarga o'zgartirishlar kiritildi.

Ko'pincha mediatsiya vositasida nikoh va oila, yer, meros, uy-joy va mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hal qilish mumkin. 2019-yilda tuzatishlar qabul qilingandan so'ng, ma'muriy nizolar ham yarashuv protseduralari yordamida hal qilinishi mumkin bo'ldi. Mediatsiya protsedurasining davomiyligi 180 kundan oshmasligi kerak.

Qonunda yana bir yangilik qilindi, unga ko'ra nizo tomonlari suddan tashqari vositachilik shartnomasini notarius bilan tasdiqlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunday holda, u ijro varaqasining kuchiga ega bo'ladi va siz u bilan bevosita sud ijrochisiga murojaat qilishingiz mumkin. Mediatsiya shartnomalarini notarial tasdiqlash ixtiyoriy tartibdir. U faqat ikki tomonning roziligi bilan amalga oshiriladi. Avvalgi tartibda esa agar bitim sud ishlarini yuritish jarayonida tuzilgan bo'lsa va sud tomonidan tasdiqlangan bo'lsa, unda u majburiy ijro etilishi kerak edi. Hozirgi kunda notarius tomonidan tasdiqlangan vositachilik shartnomasi ijro hujjatiga aylanadi va sudda yarashish uchun iste'fodagi sudyalarga murojaat qilish mumkin bo'ladi. Agar tomonlar mediatsiya shartnomasini notarius bilan tasdiqlasa, unda ijro etilmagan taqdirda sudga da'vo qo'zg'atmaslik mumkin bo'ladi. Bunday vositachilik shartnomasi avtomatik ravishda sud ijrochilariga taqdim etilishi mumkin bo'lgan ijro hujjatiga aylanadi. Mediatsiya shartnomasining notarial tasdiqlashi bilan ijro hujjati kuchini olishi mediatsiya institutining rivojlanishiga hissa qo'shadi va bu fuqarolar va tadbirkorlarga nizolarni tezroq, o'zaro madaniy tartibda hal qilishga imkon beradi. Shu bilan birga mediatsiya shartnomasini notarial tasdiqlash vositachilik protsedurasining o'ziga jamoatchilikning qiziqishini oshirdi.

Ushbu amaliyot Yevropaning ayrim mamlakatlarida (Germaniya, Ispaniya, Slovakiya, Shvetsiya), Amerikada va boshqa mamlakatlarda mavjud. 13 ga yaqin davlat mediatsiya shartnomalarini majburiy bajarilishini qonunchilikda mustahkamlagan. Amalda, xorijiy biznes vakillari vositachilik shartnomasining

qanday kafolati borligini so‘rashadi. 2019-yildan boshlab ushbu qo‘shimcha kafolat RFda paydo bo‘ldi. Ammo vositachilikning asosiy kafolati shundaki, muzokara olib boruvchi sheriklar o‘z ixtiyorlari bilan majburiyatlarni o‘z zimmalariga olishadi va ularni mas’uliyat bilan bajaradilar. Mediatsiya shartnomasining ijro etuvchi kuchi paydo bo‘lishi bilan ushbu huquqdan suiistemol qilish holatlari paydo bo‘lishi mumkin. Ushbu amaliyot uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lgan mamlakatlarda suiiste'mol qilishdan himoya qilish mexanizmlaridan foydalaniladi. Masalan, mediatsiya shartnomasini sertifikatlash paytida notarius tomonlarning nizo taraflariga bo‘lgan huquq va majburiyatlarini batafsil tushuntirib beradi va mediatsiya protsedurasida ishtirok etadigan mediatorlar ishtirok etishi shart. Notariuslar tomonidan mediatorlarning ta'limi va malakasini oshirishga oid barcha hujjatlar batafsil tekshiriladi.<sup>2</sup>

**Amerika Qo‘shma Shtatlari:** Anglo-sakson huquq tizimidagi mamlakatlarda muqobil usul bilan nizolarni hal qilishdan foydalanish juda mashhur. Muqobil usullarni joriy etishda Amerika Qo‘shma Shtatlari yetakchilik qilmoqda. AQSh rasmiy sud tizimidan tashqarida nizolarni mediatsiya va hakamlik mexanizmlari orqali hal qilish bo‘yicha dunyodagi eng ilg‘or va muvaffaqiyatli tizimlardan biriga ega. Qo‘shma Shtatlar an’anaviy ravishda nizolarni hal qilishning muqobil usullarini ishlab chiqish bo‘yicha turli dasturlar ishlab chiqilgan birinchi mamlakat deb hisoblanadi. Avraam Linkoln bir vaqtlar shunday degan edi: “sud jarayonlarini to‘xtating, iloji boricha qo‘shnilaringizni murosaga keltirishga ko‘ndiring”.

**AQShda mediatsiya** - bu ADRning eng kam tortishuv shakli. So‘nggi yillarda, AQSh va boshqa joylarda qonunchilik tizimi tiqilib qolganligi sababli, suddan tashqari kelishuvlarga erishishda mediatsiya yanada ommalashmoqda. Mediator tomonlarga haqiqiy muammolarni aniqlashda, muhokamani tashkil qilishda va kelishuv variantlarini yaratishda yordam beradi. Mediatsiyaning maqsadi ikkala tomonga ham qoniqarli vositani olishga imkon beradigan qarorini taqdim etishdir. Mediatsiya nizoning barcha bosqichlarida, sudgacha yoki sud jarayonida yoki apellyatsiya jarayonida ko‘rib chiqilishi mumkin.

**Hindiston:** Nizolarni muqobil ravishda hal qilish tizimi bu Hindiston aholisi uchun yangi holat emas. ADR qadim zamonlardan buyon Hindistonda keng tarqalgan.

**Mediatsiya** - bu vositachi, tashqi shaxs, nizoga betaraf bo‘lgan, tomonlar bilan birgalikda ularning barchasi uchun maqbul bo‘lgan echimni topish

<sup>2</sup> <https://www.eg-online.ru/article/405743/>

jarayonidir. Mediatsiyaning asosiy maqsadi tomonlarga muzokara olib borish, suhbatlashish va neytral uchinchi tomon yordam beradigan variantlarni o'rganish, kelishuvni iloji bor-yo'qligini to'liq aniqlash imkoniyatini berishdir.

Mediatsiyani ADR sifatida qo'llash inglizlarning Hindistonga kelishidan bir necha asrlar oldin boshlangan. O'sha paytda norasmiy panchayatlar qishloqlarning hurmatli oqsoqollari yoki Mahajanlar vositachi sifatida tayinlangan tomonlar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda ishlatilgan. Shu kungacha *Panchas* yoki *Pancha Parmeshvars*, neytral uchinchi tomon sifatida, hindistondagi ba'zi qabilalar tomonidan guruhlar o'rtasidagi nizolarni norasmiy ravishda hal qilishda foydalanilgan. Britaniya mustamlakachiligi boshlanishi bilan mediatsiya rasmiy va qonuniylashtirilgan ADR mexanizmi sifatida tan olinishni boshladi.

Hindistondagi mediatsiya bu eng mashhur va foydali usuldir. Hindistonda mediatsiya shartnomaviy jarayondir. Ishtirokchilar odatda mediator bilan vositachilik shartnomasini imzolaydilar, shartnomada ishtirokchilar va mediator vositachilik qilishdan oldin, keyin nima qila olishi va qila olmasligi protsedurasini belgilaydi.

Yuqorida biza ko'rib o'tganimizdek, Yevropa davlatlarida intellektual mulk masalasi muhim o'ringa ega va unga oid nizolarni hal etishda ham mukammal tizimiga ega, MDH davlatlarida esa intellektual mulk huquqi hozirgi kunda rivojlanish bosqichida. Jumladan Yevropa davlatlarida intellektual mulk nomoddiy aktivlar sifatida iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, aksariyat kompaniyalar qiymatining 70% dan ortig'ini tashkil etadi. Vaholanki, muqobil usul tomonlar uchun samaralidir. Intellektual mulk huquqining egalari doim zudlik bilan va tezkor odil sudlovni amalga oshirish mexanizmlarini xohlashadi. Ishlarni ko'rib chiqishni asossiz ravishda kechiktirish va qimmatga tushadigan sud jarayonlari intellektual mulkni muhofaza qilishni rivojlanishiga yordam bermaydi. Intellektual mulk uchun nizolarni hal qilishning muqobil choralari davr talabiga ham aylangan. Intellektual mulk egasining himoyalangan huquqlarini buzilishi bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun sud emas balki, nizolarni hal qilishning muqobil usullariga murojaat qilish samaralidir.

Mamlakatimizda davlat organlarining aholi bilan muloqotini takomillashtirish, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash hamda ularning muammolarini hal etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ushbu sohada islohotlarning hozirgi bosqichi davlat organlarida nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlarini fuqarolar hamda tadbirkorlarning

ishonchiga sazovor bo'ladigan nizolarni hal etuvchi samarali muqobil institutlarga aylantirish lozimligini taqozo etmoqda.<sup>3</sup> So'nggi paytlarda suddan tashqari nizolarni hal qilishning muqobil usullari asta-sekin kuchayib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 17-iyun kuni qabul qilingan "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4754-son qarori ham shu maqsadda qabul qilingan desa mubolag'a bo'lmaydi.

Umumiy qilib aytganda, nizolarni hal qilishning muqobil usuli sifatida mediatsiya xalqaro tajribada sinovdan o'tib, o'zining bir qator afzalliklari bilan dunyo mamlakatlari milliy qonunchiligidan munosib o'rin egallab kelmoqda. Ko'plab davlatlar mediatsiya to'g'risidagi o'zlarining qonunlarini qabul qilishdi va mamlakat doirasida hamda xalqaro miqyosdagi mediatsiya markazlarini tashkil etishdi. Ayni vaqtda fuqarolik, iqtisodiy va mehnatga oid nizolarni mediatsiya yordamida hal etish taraflarning qimmatli vaqti va mablag'ini tejashi barobarida, ular o'rtasidagi do'stona munosabatlar saqlanishiga ham zamin yaratadi. Mamlakatimizda ushbu qonunning qabul qilinishidan tadbirkorlik bilan bog'liq munosabatlarni rivojlantirish, sohada umume'tirof etilgan xalqaro standartlar darajasiga chiqish nazarda tutilgan.

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi PQ-4754-son "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Oqyulov. Intellektual mulk huquqi// I.M.Mo‘minov nomidagi Falsafa va xuquq instituti. – Toshkent, 2005.– 40 b.
2. Intellektual mulk huquqining dolzarb muammolari / xorijiy ekspertlar ishtirokida (videokonferensiya shaklida) Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: TDYUU, 2020. – 336 bet.
3. Hakamlik muhokamasi / O‘quv qo‘llanma. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYuU, 2016. - 131 bet.
4. Ш.М.Масадиқов. Медиация-альтернативный способ разрешения гражданско-правовых споров. Учебное пособие. – Ташкент: ТДЮИ, 2010. – 100 с.
5. Update on the WIPO Arbitration and Mediation Center’s Experience in the Resolution of Intellectual Property Disputes, WIPO Center, Les Nouvelles, Journal of the Licensing Executives Society International, March 2019, p. 49.
6. The King James Bible 1 Kings 3:16-28.
7. Маргарет Л. Мозес Халқаро тижорат арбитражи тамойиллари ва амалиёти. Учинчи нашр./ Т.: Lesson press, -502 бет.

### II.Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent-2018.
  2. O‘zbekiston Respublikasining 16.02.2021-yildagi “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi 674--sonli Qonuni. [lex.uz](http://lex.uz)
  3. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 5-noyabrdagi “Mediatsiya to‘g‘risida”gi 482-sonli Qonuni. [lex.uz](http://lex.uz)
  4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-fevraldagi “Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 4168-sonli qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
  5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi PQ-4754-son “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori
  6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi “Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 4965-sonli qarori.
1. <http://www.lex.uz>
  2. [www.ima.uz](http://www.ima.uz)
  3. <https://viamediationcentre.org>
  4. <https://www.wipo.int>
  5. <https://www.international-arbitration-attorney.com/ru>